

XII. DEMOGRAFIK HOLAT VA O'RTACHA ISH HAQI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-dekabr holatiga viloyat doimiy aholisining soni 3 976,5 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 80,1 ming kishiga yoki 2,1 %ga ko'paydi. Shundan, 2 231,6 ming kishi - shahar joylarida (jami aholi sonining 56,1 %) va 1 744,9 ming kishi - qishloq joylarida (43,9 %) istiqomat qiladi.

Viloyat hududi va aholi zichligi (2023- yil 1- yanvar holatiga)

	<i>tashkil topgan sana</i>	<i>hududi, ming kv. km</i>	<i>doimiy aholi soni, ming kishi</i>	<i>1 kv. km ga aholi zichligi, kishi</i>
Viloyat bo'yicha	15.01.1938	6,759	3 976,5	588,3
<i>shaharlar:</i>				
Farg'ona	1877 yil	0,100	305,6	3 046,8
Qo'qon	X asr	0,037	264,2	7 139,3
Quvasoy	14.06.1954 yil	0,264	98,9	374,5
Marg'ilon	X asr	0,041	246,7	6 016,7
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	29.09.1926 yil	0,631	223,7	354,4
Qo'shtepa	16.04.1952 yil	0,368	203,6	553,1
Bag'dod	31.12.1964 yil	0,333	228,0	684,6
Buvayda	26.12.1973 yil	0,279	241,5	865,7
Beshariq	29.09.1926 yil	0,774	238,5	308,1
Quva	10.02.1939 yil	0,438	270,7	617,9
Uchko'prik	29.09.1926 yil	0,275	242,9	883,3
Rishton	09.01.1967 yil	0,307	212,3	691,5
So'x	27.02.1990 yil	0,221	82,0	371,2
Toshloq	12.04.1973 yil	0,243	214,3	881,7
O'zbekiston	17.04.1963 yil	0,689	250,8	364,1
Farg'ona	22.02.1964 yil	0,612	226,0	369,4
Dang'ara	07.12.1970 yil	0,435	185,4	426,1
Furqat	09.04.1992 yil	0,305	124,5	408,0
Yozyovon	27.12.1980 yil	0,407	117,3	288,1

Farg'ona viloyatining ma'muriy-hududiy tashkil topishi 1938- yilning 15- yanvaridan boshlanadi. Hududi 6,8 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi yoki mamlakatimiz hududining 1,5 foiziga teng. Viloyatimiz shimoldan Namangan viloyati, sharqdan Andijon viloyati, janub tomondan Qirg'iziston Respublikasining O'sh hamda Batken viloyatlari va g'arbdan Tojikiston Respublikasining Xo'jand viloyati bilan chegaradosh. Viloyaning So'x tumani hamda Farg'ona tumanining Shohimardon va Yordon, Rishton tumanining Cho'ng'ara qishloqlari viloyat, Respublika hududidan tashqarida, Qirg'iziston Respublikasi hududida joylashgan.

Viloyat ma'muriy hududiy bo'linishiga ko'ra 4 ta viloyat miqyosidagi shahar, 15 ta tuman, 5 ta tumanlar tasarrufidagi shaharlar, 197 ta shahar tipidagi posyolkalar, 1 227 ta aholi yashash punktlari hamda 1 062 ta mahalla fuqarolar yig'inlaridan tashkil topib, ularda 3 976,5 ming nafar aholi istiqomat qiladi. Viloyatning ma'muriy markazi Farg'ona shahri.

Viloyatning iqlimi keskin kontinental, quruq. Tog' tizmalari Farg'ona vodiysiga sovuq havoning kirib kelishini to'sib turganligi bois, qishda ob-havo bir muncha mo'tadil. Yozi issiq, iyulning o'rtacha harorati 27,5°S, qishi nisbatan sovuq, yanvarning o'rtacha harorati -3°S. Vegetatsiya davri 217 kun, yillik o'rtacha yog'in miqdori 200-250 mm.ni tashkil etadi.

Farg'ona viloyati hududlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot


(2023- yilning 1- yanvar holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, %da		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Farg'ona viloyati	3 976,5	2 231,6	1 744,9	102,1	56,2	43,8
<i>shaharlar:</i>						
Farg'ona	305,6	305,6	0,0	102,2	100,0	-
Qo'qon	264,2	264,2	0,0	101,7	100,0	-
Quvasoy	98,9	55,7	43,2	102,1	56,2	43,8
Marg'ilon	246,7	246,7	0,0	101,7	100,0	-
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	223,7	168,3	55,4	102,1	75,3	24,7
Qo'shtepa	203,6	78,3	125,3	102,6	38,6	61,4
Bag'dod	228,0	116,7	111,3	102,1	51,2	48,8
Buvayda	241,5	111,7	129,8	102,3	46,9	53,1
Beshariq	238,5	83,8	154,7	101,6	35,1	64,9
Quva	270,7	125,4	145,3	101,8	46,3	53,7
Uchko'prik	242,9	44,6	198,3	102,4	18,2	81,8
Rishton	212,3	135,6	76,7	101,9	63,8	36,2
So'x	82,0	51,9	30,1	101,8	63,3	36,7
Toshloq	214,3	50,1	164,2	102,2	23,1	76,9
O'zbekiston	250,8	108,6	142,2	101,8	43,3	56,7
Farg'ona	226,0	142,1	83,9	102,3	62,7	37,3
Dang'ara	185,4	43,0	142,4	102,5	23,4	76,6
Furqat	124,5	29,5	95,0	102,2	23,5	76,5
Yozyovon	117,3	70,2	47,1	102,2	60,1	39,9

Shaharlar ichida eng ko‘p aholi Farg‘ona shahrida 305,6 ming kishi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 %ga o‘sgan) va tumanlarda eng ko‘p aholi Quva tumanida bo‘lib 270,7 ming kishini tashkil qiladi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 %ga o‘sgan).

Hududlar kesimida doimiy aholi soninig taqsimlanishi

(2023- yil 1-yanvar holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, % da)



Yanvar-dekabr oylarida viloyat bo‘yicha aholining tabiiy harakati ko‘effitsiyentlari


<i>Ko‘rsatkichlar</i>	<i>ming kishi</i>		<i>1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>
Tug‘ilganlar	99,1	101,4	25,7	25,8
O‘lganlar	18,7	18,5	4,8	4,7
<i>shu jumladan bir yoshgacha bolalar</i>	0,6	0,5	8,9	11,0
Nikohlar, <i>mingta</i>	32,8	32,0	8,5	8,1
Ajralishlar, <i>mingta</i>	4,3	5,4	1,1	1,4

Tug‘ilish darajasi. 2022- yilning yanvar–dekabr oylari tug‘ilganlar soni 101,4 ming kishini tashkil etdi va 2021- yilning shu davriga (99,1 ming kishi) nisbatan 2,3 ming kishiga ko‘paydi, shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 25,8promilleni tashkil qildi.

Tug‘ilish darajasining ko‘payishi viloyatning Farg‘ona tumanida 26,0 dan 26,8 promille, Farg‘ona shahrida 21,2 dan 23,4 promille, Qo‘qon shahrida 22,4 dan 25,5 promillega, Quvasoy shahrida 23,0 dan 24,0 promillega, Marg‘ilon shahrida 24,6 dan 26,7 promillega kuzatildi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti

(2022- yilning yanvar-dekabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille))




O‘lim darajasi. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida o‘lganlar soni **18 460** kishini tashkil qildi va 2021- yilning shu davriga (**18 703** kishi) nisbatan 243 kishiga kamaydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil qildi (2021- yil yanvar-dekabr oylarida **4,8** promille).

O'lganlar sonining ko'payishi viloyatimizning ba'zi shahar va tumanida yuz bergan bo'lib, eng ko'p o'lim Toshloq tumanida 1015 kishidan 4,8 promille, So'x tumanida 470 kishidan 5,8 promillega kuzatildi, Beshariq tumanida 1190 kishidan 5,0 promille, Farg'ona tumanida 1029 kishidan 4,6 promille, Qo'shtepa tumanida 892 kishidan 4,4 promille.

O'lganlar umumiy sonining **59,7** %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,4** %i o'sma kasalliklaridan, **4,9** %i ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, **6,5** %i baxtsiz hodisadan, **7,7** %i nafas olish organlari kasalliklaridan vafot etgan.

O'lganlar umumiy sonining tarkibiy tuzilishi

(2023- yilning 1-yanvar holatiga, %da)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida bir yoshga to'lmagan **576** ta bolalar o'limi kuzatildi. Go'daklar o'limi koeffitsiyenti 11,0 promilleni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-dekabr 8,9 promille).

Nikohlar va ajralishlar. 2022- yilning yanvar-dekabr oylari shahar, tuman hokimliklarining FHDYo bo'limlarida **31 992** ta nikohlar va **5 445** ta ajralishlar ro'yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 8,1ta nikoh (2021 yilning tegishli davrida 8,5 ta) va 1,4 ta ajralishlar (2021- yilning tegishli davrida -1,1) to'g'ri keladi.

Yanvar-dekabr oylarida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni
(birlikda)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2021-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2021-yil</i>	<i>2022-yil</i>
Viloyat	32 804	31 992	4295	5445
<i>shaharlar:</i>				
Fargʻona	2 330	2 204	616	744
Qoʻqon	2 021	1 997	448	601
Quvasoy	810	711	119	164
Margʻilon	1 989	1 921	316	382
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	1 986	1 825	227	261
Qoʻshtepa	1 858	1 691	198	204
Bagʻdod	2 015	2 037	213	318
Buvayda	2 114	2 134	202	247
Beshariq	1 855	1 843	187	226
Quva	2 068	2 077	193	287
Uchkoʻprik	2 189	1 999	206	212
Rishton	1 766	1 966	201	346
Soʻx	561	734	110	76
Toshloq	1 671	1 654	183	200
Oʻzbekiston	2 038	1 955	249	313
Fargʻona	1 991	1 848	251	353
Dangʻara	1 568	1 585	172	247
Furqat	1 057	985	114	123
Yozyovon	917	826	90	141

Migratsiya. Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatga koʻchib kelganlar soni **8618** kishini, shu davr mobaynida koʻchib ketganlar soni esa **11422** kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldigʻi minus **2804** kishiga (2021 yilning shu davrida - minus **4011** kishi) teng boʻldi. Eng katta minus qoldiqlar Margʻilon shahri (minus **1184**) va Qoʻqon shahrida (minus **973** kuzatildi).


Yanvar-dekabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	<i>Kelganlar</i>		<i>Ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldos</i>	
	<i>2021-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2021-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2021-yil</i>	<i>2022-yil</i>
Viloyat	10 857	8 618	14 868	11 422	-4 011	-2 804
<i>shaharlar</i>						
Farg'ona	3 518	2 962	2 420	1 635	1 098	1 327
Qo'qon	515	371	1 462	1 344	-947	-973
Quvasoy	611	459	429	316	182	143
Marg'ilon	568	49	1 575	1 233	-1 007	-1 184
<i>tumanlar</i>						
Oltiariq	234	127	505	461	-271	-334
Qo'shtepa	708	667	618	346	90	321
Bag'dod	215	63	658	471	-443	-408
Buvayda	300	287	562	502	-262	-215
Beshariq	258	213	838	729	-580	-516
Quva	164	156	791	605	-627	-449
Uchko'prik	394	339	597	501	-203	-162
Rishton	280	207	608	441	-328	-234
So'x	99	80	63	39	36	41
Toshloq	469	333	677	394	-208	-61
O'zbekiston	160	416	844	699	-684	-283
Farg'ona	922	756	905	670	17	86
Dang'ara	750	593	567	436	183	157
Furqat	458	406	462	392	-4	14
Yozyovon	234	134	287	208	-53	-74


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 599,1 ming so'mni tashkil qildi va 2021-yilning shu davriga nisbatan 10,9 %ga o'sdi. Eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Farg'ona shaharda 3 613,3 ming so'mni, Qo'qon shaharda 3 057,6 ming so'mga to'g'ri keldi.

Yanvar-dekabr oylari davomida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi (ming so'mda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2022- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz ming so'mda)



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori miqdori moliya va sug‘urta faoliyatiga to‘g‘ri kelib, 8 467,1 ming so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich qurilishda 2 564,4 sanoatda 3 473,9 va ta‘lim sohasida 2 448,6 ming so‘mdan iborat bo‘ldi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(yanvar-dekabr oylari qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming.so‘mda)

	2021-yil	2022-yil	O‘shish sur‘ati %
Viloyat	2441,1	2900,5	118,8
<i>shaharlar:</i>			
Farg‘ona	3296,9	4022,2	122,0
Qo‘qon	2817,5	3328,4	118,1
Quvasoy	2411,6	2882,9	119,5
Marg‘ilon	2125,5	2467,3	116,1
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	1694,2	2014,1	118,9
Qo‘shtepa	2069,7	2511,3	121,3
Bag‘dod	2180,3	2604,1	119,4
Buvayda	1798,3	2155,8	119,9
Beshariq	1723,6	2074,3	120,3
Quva	2004,6	2273,6	113,4
Uchko‘prik	1942,9	2245,3	115,6
Rishton	2028,1	2252,5	111,1
So‘x	2073,4	2447,0	118,0
Toshloq	2599,1	3145,2	121,0
O‘zbekiston	1981,8	2368,9	119,4
Farg‘ona	1978,4	2377,0	120,1
Dang‘ara	1889,3	2261,7	119,7
Furqat	2140,2	2497,4	116,7
Yozyovon	2068,6	2506,0	121,1

***(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*